



BADIIY MEROS ASOSIDA PEDAGOGIK KADRLARNI MA'NAViy-ESTETIK RIVOJLANTIRISH

Zokirova Umida Ilhomovna
Jizzax davlat pedagogika univerteti o'qituvchisi
Sayfullayeva Shaxinabonu
Jizzax davlat pedagogika univerteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim siyosati va tadqiqotimiz doirasida aniqlashtirib; so'ngra ushbu "ma'naviyat", "badiiy qadriyatlar asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash", "o'zbek xalqining badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik tarbiyalash", "bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirish" tushunchalarini shakllantiramiz; tadqiqot kontseptsiyasini ifodalaymiz; pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik tarbiyasi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish haqida so'z yuritiladi.

Abstract: In this article, within the framework of modern education policy and our research, we clarify; then this "spirituality", "spiritual-aesthetic education based on artistic values", "spiritual-aesthetic education based on the artistic heritage of the Uzbek people", "spiritual-aesthetic education of future teachers" we form the concepts of "development"; express the research concept; in the process of studying pedagogical sciences, there is talk about the development of indicators of spiritual and aesthetic education of future teachers.

Аннотация: В данной статье в рамках современной образовательной политики и нашего исследования уточняем; то это «духовность», «духовно-эстетическое воспитание на основе художественных ценностей», «духовно-эстетическое воспитание на основе художественного наследия узбекского народа», «духовно-эстетическое воспитание будущих учителей» мы формируем понятия «развитие»; выразить концепцию исследования; в процессе изучения педагогических наук идет речь о развитии показателей духовно-эстетического воспитания будущих учителей.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-estetik rivojlantirish, badiiy-estetik sifatlar, badiiy madaniyat, ma'naviy qobiliyat, ijodiy, kommunikativ, ma'rifiy tushunchalar, xalq ijodiyoti, hissiyotlarni shakllantirish.

Key words: Spiritual-aesthetic development, artistic-aesthetic qualities, artistic culture, spiritual ability, creative, communicative, educational concepts, folk art, formation of emotions.

Ключевые слова: Духовно-эстетическое развитие, художественно-эстетические качества, художественная культура, духовные способности, творческие, коммуникативные, воспитательные концепции, народное творчество, формирование эмоций.

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirish - bu pedagog kadrlarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy talablar darajasida bajariladigan davlat ijtimoiy-pedagogik buyurtmasidir. Bo'lajak o'qituvchilarni ota-bobolarimizdan qolgan muhim badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlantirishda, avvalo, buning uchun zarur bo'lgan



tushunchalarni aniqlashtirib olish kerak. Bunday tushunchalar quydagilardir: “ma’naviyat”, “ma’naviy-estetik tarbiya”, “badiiy meros”, “badiiy qadriyat”, “milliy-badiiy qadriyatlar”, “estetiklik”, “estetik qadriyat”, “estetik tarbiya”, “estetik madaniyat” va boshqalar.

Ushbu kategoriyalar, ya’ni, mohiyatini zamonaviy ta’lim siyosati va tadqiqotimiz doirasida aniqlashtirib; so’ngra ushbu “ma’naviyat”, “badiiy qadriyatlar asosida ma’naviy-estetik tarbiyalash”, “o’zbek xalqining badiiy merosi asosida ma’naviy-estetik tarbiyalash”, “bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirish” tushunchalarini shakllantiramiz; tadqiqot kontseptsiyasini ifodalaymiz; pedagogika fanlarini o’rganish jarayonida bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy-estetik tarbiyasi ko’rsatkichlarini ishlab chiqamiz; pedagogika fanlarini o’rganish jarayonida bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirishga tizimli yondashuvni amalga oshiramiz shuningdek, pedagogik kadrlarni milliy-badiiy meros asosida ma’naviy-estetik rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlaymiz.

Badiiy qadriyatlar asosida ma’naviy-estetik rivojlantirish – bu estetik his tuyg’uni ya’ni, san’atning yuqori darajadagi badiiy asarining emotsional-hissiy idrok etilishini shakllantirish, rivojlantirish, qanoatlantirish jarayoni. Bu badiiy-estetik bilim, tushuncha va g’oyalarga, badiiy asarga qadriyatli: badiiy- munosabat asarni o’rganish, mulohaza qilish, tushinishga, bu jarayonga intellektual-ijodiy yondashish, paydo bo’lgan badiiy-estetik bilimlarni namoyon qilish, badiiy asarga munosabatni shakllantirish, shaxsning badiiy-estetik sifatlarini shakllantirishdir.

Ma’naviy-estetik tarbiyalashning badiiy merosga asoslanishi deganda o’tmishdagi odamlarni badiiy madaniyati bilan tanishtirish jarayonida “abadiy badiiy qadriyatlar” namunalariga, shu jumladan, haqiqiy estetika va yuqori badiiy ijod na’munalariga hamda xalq ijodiyoti – folklor na’munalariga tayanish tushuniladi. SHuningdek, asarni hissiy idrok etish bilan estetik hissiyotlarni hayrat, quvonch, zavq, mamnunlik, ma’naviy farovonlikni rivojlantirish, shakllantirish va qondirish jarayonidir. Zero, bu tushuncha intellektual-ijodiy darajadagi g’oyaviy va badiiy tushunchani, badiiy-estetik xususiyatlarni bilish, unga bo’lgan hissiy va qadriyatli munosabatini aniqlash jarayonida intellektual-kognitiv qobiliyat, qabul qilingan badiiy-estetik taassurotlarni, bilimlarni, tushuncha va g’oyalarni o’zida aks ettirish, (ma’naviy qobiliyat, ijodiy, kommunikativ, ma’rifiy) orqali ma’naviy-estetik salohiyat va badiiy qadriyat to’g’risidagi mantiqiy-analitik mulohaza qilish shaxsning ma’naviy-estetik fazilatlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Ta’lim tizimida bo’lajak o’qituvchilarni o’zbek xalqining badiiy merosi asosida ma’naviy-estetik rivojlantirish ta’lim tizimida, gumanitar va pedagogik fanlarni o’rganish jarayonida amalga oshiriladi. Unga o’zbek xalqining yuksak badiiy “abadiy qadriyatlari”, milliy o’ziga xosligi, umumbashariy, milliy qadriyatlarga qo’shgan hissasi hamda ma’naviy-estetik rivojlantirish manbai sifatida qaraladi.

Bo’lajak o’qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirishda o’zbek xalqi va ajdodlarining o’tmishdagi badiiy madaniyati – namunalaridan foydalanish, shu jumladan, miniatyuralar, an’anaviy me’morchilik, bezak san’ati, kitob bezatish, fol’klor, she’riyat - ota-bobolarimiz san’atining yuksak ma’naviy-estetik, estetik-ma’rifiy qadriyatlarining, kuchli salohiyati va yorqin milliy sifatleri bilan tanishtirish jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonda



- hissiyotlarni shakllantirish - estetik (hayratlanish, quvonch, zavqlanish, mamnuniyat, ma'naviy farovonlik), milliy g'urur tuyg'usi, milliy o'zlikni anglash (san'at asarlarini hissiy-idrok etish bilan);

- o'zbek xalqining badiiy merosining ko'plab "abadiy qadriyatlari"ni- hissiy, intellektual-ijodiy, mantiqiy-kognitiv, badiiy-tahliliy (berilgan algoritmlarga muvofiq) idrok etish;

- o'zbek xalqining boy milliy-madaniy merosi xazinasiga o'zining hissiy-estetik va qadriyatli munosabatni aniqlash;

- kelajakdagi o'quv-pedagogik amaliyotida o'zbek xalqining badiiy merosidan olingan ma'naviy-estetik e'tiqodlar, motivlar, bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, taassurotlar, qobiliyatlar, ma'naviy-estetik salohiyatni integratsiyalash;

- o'zining ma'naviy-estetik, kasbiy-shaxsiy rivojlanishiga ob'ektiv baho berish;

- bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik kamoloti, shu jumladan, milliy-badiiy merosning yuqori darajadagi kasbiy va shaxsiy rivojlanish omiliga bo'lgan ehtiyojlarini faollashtirish.

Bugungi kunda ta'lim sohasida kasbiy bilimlar bilan birga ma'naviy-estetik bo'lajak o'qituvchilarga milliy-madaniy bilimlar egallashlariga ahamiyat qaratilmoqda. Bu ularda yuqori milliy fazilatlar, avvalo, ma'naviy-estetik milliy-ma'naviy tarbiyani amalga oshirishga ko'maklashmoqda. Shu ma'noda bizning tadqiqot kontseptsiyamizning asosiy yo'nalishi ham zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb va talabga javob beradigan ma'naviy-estetik, xususan, pedagogik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan. Bunda biz amal qilishimiz va e'tibor berrishimiz kerak bo'lganjihatlar mavjud. Xususan:

- davlat ta'lim siyosati bilan bog'liq zamonaviy umumiy metodologik qoidalarining aniq ta'rifi;

- zamonaviy matnda ma'naviyat, ma'naviy-estetik tarbiya tushunchalarini oydinlashtirish;

- talabalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish, shaxsning ma'naviy-estetik komponentining yaxlit rivojlanishi uning, kasbiy va shaxsiy shakllanishida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash;

- pedagogik fanlari dasturlarini modifikatsiyalash va uning bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash;

-talabalarni pedagogika fanlarining fanlararo aloqalari darajasida mana'viy-estetik rivojlantirishning umumiy pedagogik tizimini ishlab chiqish va ularni ma'naviy-estetik rivojlantirish bo'yicha o'ziga hos mavzu yo'nalishida materiallar tayyorlash;

-o'zbek xalqining milliy-estetik qadriyatlarga asoslangan boy badiiy merosidan bo'lajak o'qituvchilarning hissiy-estetik, intellektual-ijodiy, kasbiy-faoliyatli rivojlantirish hamda ma'naviy hayotining boyitishni ta'minlaydigan yuqori darajadagi milliy-estetik qadriyatlarni tanlab olish orqali ularning estetik talablarini, rivojlanayotgan pedagogik faoliyatga qiziqishlarni shakllantirish va qonoatlantirish;

-talabalarning hissiy-estetik, intellektual-ijodiy, kasbiy-faoliyatli rivojini ta'minlovchi o'zbek xalqi badiiy merosidan yuksak milliy-estetik qadriyatlarni tanlash orqali ularning



ma'naviy hayotini boyitish, ya'ni kelgusi pedagogik amaliyotida kerak bo'ladigan estetik talablarini qondirish uchun amalga oshirish;

- o'zbek xalqining ma'naviy-estetik merosini o'rganish bo'yicha ma'ruzalar mazmuni, texnologiyalari, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar va seminarlarni (yuqori darajadagi badiiy qadriyatlar namunalaridan foydalangan holda) aniq mavzular bo'yicha ishlab chiqish;

- talabalarni ma'naviy-estetik rivojlantirishning ishlab chiqilgan mezonlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarga ma'naviy-estetik ta'sir ko'rsatadigan sharoit va omillarni, samarali shakllar, maqbul usul va vositalarni aniqlash. Bunda bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-estetik qiyofasi takomillashadi hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifati yaxshilanadi.

Xulosa o'rnida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirish muammosi, birinchi navbatda, shaxsning ma'naviyati va ma'naviy rivojlanishi bo'yicha davlat ta'lim siyosatining, shuningdek, zamonaviy olimlarning ma'naviyat, ma'naviy tarbiya to'g'risidagi izlanishlari metodologik pozitsiyalari asosida ko'rib chiqilishini talab qiladi. Bo'lajak kadrlarni ma'naviy-estetik rivojlantirishda badiiy meros muammosini uslubiy jihatdan ko'rib chiqish, bo'lajak o'qituvchilarni o'qitishning ijtimoiy-pedagogik shartlarini aniqlash muhimdir. Bu borada bir qator zaruriy

mezon, tushuncha va atamalarini ko'rib chiqish, ayniqsa: “ma'naviy-estetik tarbiyalash” “Badiiy qadriyatlar asosida Ma'naviy-estetik rivojlantirish”, “bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek xalqining badiiy merosi asosida ma'naviy-estetik “rivojlantirish” kabi tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik kadrlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-estetik rivojlantirish uzoq davom etadigan ijtimoiy mohiyatga ega jarayondir. Bu pedagogik kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishi, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini va albatta, bu borada davlat ta'lim siyosati va talablarini amalga oshirishga yordam beradi. Yangi avlodning yuqori intellektual va ma'naviy boy o'qituvchisi - yuqori milliy-ma'naviy va umumbashariy fazilatlariga ega, har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy talabga ega shaxsni tarbiyalaydi, buning kafolati - davlat ta'lim siyosati sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Sher, B. Xusanov, E. Umarov. Estetika. Toshkent-2008
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: 2000 y.
3. Vatan tuyg'usi. A. Ibrohimov, X. Sultonov, N. Jo'rayev, Toshkent: 1996 y.
4. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent: 2000 y.
5. Zakirova Umida Ilhomovna. International Journal of Research. Possibilities For The Use Of Spiritually – Moral Education Of Our Great Ancestors In Innovative Pedagogical Technologies. 159-166 p